



Xorazmshoh Anushteginiylar davrida davlat boshqaruv tizimi

Suyunov Behruz Turg'un o'g'li

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti

Tarix yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Parmonov Sharofiddin Shavkatovich

Chirchiq davlat pedagogika univrsiteti gumanitar

fanlar fakulteti O'zbekiston tarixi kafedrası o'qtuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada siz Anushteginiylar sulolasi davrida bo'lgan dargoh va devonlar tizimi markaziy davlat apparati unda faoliyat olib brogan davlat lavozimlari va ularni qanday vazifalarni bajarganliklari harbiy lavozimlar haqida qo'shin tuzilishi haqida qesqacha ma'lumotga ega bo'lasiz.

Kalit so'zlar: vazir, hojib,qissador,amiri oxur,amiri shikor,ustozdor,devoni-arz shihna,tashtdor.

Xorazmshoh Anushteginiylar davrida davlat boshqaruvi ikki tizimdan: dargoh va devonlar majmuidan iborat bo'lgan. Xorazmshohlar davlatida markaziy davlat aparati "al-majlis ul oliy al faxri at-toji" deb nomlangan bo'lib uni vazir boshqargan. Vazir lavozimi mamlakatda sultondan keyingi urinda turgan shaxs bo'lgan. Vazir rasmiy marosimlarda, davlatlar aro aloqalarda, mustamlakalar bilan olib boriladigan mo'zokarlarda sulton nomidan qatnashgan, sulton va rayiat (fuqorolar) o'rtasida vositachilik qelgan. Barcha davlat



amaldorlari, amirlar, beklar va harbiy boshliqlar vazirga bo'ysungan. Vazirning asosiy vazifalari qo'yidagilardan iborat bo'lgan: -ashob ad-davonin yoki devonxonalar amaldorlarining boshlig'i. Yuqori mansabli amaldorlarni ishga tayinlagan yoki bo'shatgan; - davlat amaldorlariga nafaqa(arzak) va modiy yordam (mavojib) joriy etish ishlarini boshqargan; - bojxona va xazina faoliyatini nazorat qilgan; -sultonga muntazam ravishda hamrohlik qilgan; Z. Bunyodov shunday tarif beradiki: <eng yuksak mahkama-vazorot (vazirlik) bo'lib, barcha jamoat ishlari bo'yicha hamda odamlar hayotining to'g'ri yo'ldan borishi u bilan aloqadordir, buning natijasida mamlakatning chiroyi va martabasi ortadi, davlatda tartib va qonunlarini biladigan, davlat kelajagini biladigan, shon-shurat va yutuqlarga yetaklovchi, ahvolidan ruyi-rost xabardor qilib turadigan, ko'rsatmalariga to'la ravishda ishonish mumkin bo'lgan kishi bo'lishi lozim...) Vazirlarga sadr,dastur,xo'jayi buzruk kabi unvonlar berilgan. Vazir lavozimiga asosan arab va fors mellat vakillari tayinlangan bu lavozimga turk mellatidan bo'lgan kishilar kiritilmagan vazir bo'lgan shaxs saroy o'dob ahloq qoidalari hamda Qur'on oyatlarni yaxshi bilgan kishi bo'lishi kerak edi. Xorazmshohlar davlatida elk vazir lavozimi birinchi marta sulton Otsiz davrida joriy etilgan. Bu davirda xorazmshohlar davlatida o'zidan tarixda yaxshi nom qoldirgan vazirlar ko'p bo'lgan, ulardan eng mashhuri sulton Takash davrida vazirlik qilgan Nizom-al-mulk shams-ad-din Ma'sud ibin Ali ad-Xarafiy edi. Uning tashabusi bilan Marv va Urganch kabi shaharlarda machit, madrasa va qo'lyozmalar saqlanadigan joy qurdirganligi tarixda ma'lum. Mug'ullar bosqini davrida shoh Alovuddin Muhammad vazirlik va barcha ijroiyy hokimiyatni bekor qildi, uning urniga oltita vakildorlardan iborat kengash tuzgan edi. Devonlarning faoliyati Saljuqiylar zamonasidagi tizimdan deyarli farqlanmagan. Chunki Xorazmshohlar davlati hali mustaqil bo'lmasdan turib saljuqiylar davlati tasir doirasida faoliyat olib borgan. Anushteginiylarning dastlabki vakillari saljuqiy sultonlarga so'zsiz buysungan davlatda saljuqiylarning boshqaruv tartiblari o'rnatilgan. Xorazmshohlar davlatida vazir lavozimiga tayinlangan shaxslar asosan Xorazm, Buxoro, Balx, Nishopur, Isfaxon, Xirotdan chiqqan yuksak qobiliyat egalari bo'lishgan. Xorazmshohlar davlatida hech bir davlatda



uchramaydigan ikkita lavozim bo'lgan bular viloyat va nihoya vazirligi edi. Xorazmshohlar ijroi boshqaruvida tug'ro (insho) devoni rasmiy hujjat, yozishlarini tuzish bilan shug'ullangan, Istifo devoni-moliya ishlari bilan, ishrov devoni-davlat nazorati tadbirlariga ma'sul. Devoni-xos maxsus devon bo'lib, sulolaga tegishli bo'lgan yer-suv, mol-mulk, sulton xizmatidagi shaxslarni maosh bilan taminlanishini nazorat qilgan. Xorazmshohlar davlatida mavjud bo'lgan yana bir lavozim bu Bosh hojib (hojibul-kabir) lavozimida ishlagan shaxs marosimlarni tashkil etish va uni nazorati bilan shug'ulangan. Ular hukumdorning ishongan kishisi bo'lgan u doim hukumdorga hamrohlik qilgan hamda vazirlar faoliyatini taftish etgan undagi yozuvlar, arxivlar, moliya sohasidagi kotiblar va amaldorlarning hatti-harakatini nazorat qilgan. Ustozdor-xorazmshohlar saroyida xo'jalig ishlariga boshchilik qilgan, otxona, oshxonalar, novoyxonalar, sharobxonalar xo'jaligini boshqarar edi. Oliy hukumdor chaqirganda ham birinchi yitib kelgan, sulton buyruqlarini boshqa boshqa amaldorlarga yetkazgan. Amiri-oxur (miroxo'r) amir otxonalarining boshlig'i sulton minib yurgan otlarga ma'sul shaxs u harbiy yurishlarda faol qatnashgan. Ayrim manbalarda kiltirilishicha Amiri-oxur qo'lida 30 ming ot bo'lganligi tarixiy manbalarda qayd etilgan. Amiri-shikor lavozimidagi shaxs sulton ovlarini rejalashtirgan. Tashdor-sulton hammomlarining boshlig'i. Uning qo'l ostida bir nechta g'ulom bo'lgan. Tashdorlar sultonga juda yaqin bo'lishgan. Tashdorlarga sultonlar malik unvonini taqdim etgan. Bu lavozimdagi shaxs harbiy yurishlarda ishtirok etgan bazilari esa sultonning shaxsiy elchisi vazifasini ham bajargan. Qissador lavozimidagi shaxs sulton nomiga yozilgan shikoyat va eltimosnomalarni yig'ib payshanbadan jumaga utar kechasi sultonga yetkazgan. Choshnigir (bakovul)-u dasturxon yozilganda sulton taomlardan zaharlanmasligi uchun uni birinchi o'zi tatib ko'rgan. Davotdor-sultonning xos kotibi, farmonlarini yozuvchi. Amirul-a'lam (a'lamdor yoki yalovbardor)-sulton bayroqdori yoki sulton tug'uning boshlig'i. Xorazmshohlar davlatining eng oliy boshqaruv tizimi harbiy boshqaruv tizimi hisoblanadi. Devon-al arz (yoki sohibi devon-al jayish hisoblanadi). Devon al-arz harbiy vazir u harbiylarga yer-mulk, maosh bilan taminlanishi, harbiylarni ko'rikdan o'tkazish qurol-aslahalarini tekshirish ishlarini nazorat



qilgan. Xorazmshohlarning qo'shinlarining qomondoniga qoid yoki muqaddam lavozimi berilgan. Xorazmshoh yangi bosib olingan hududlarni amirlariga iqto tarzida bo'lib bergan, mahalliy amirlar orasidan eng qobilyatlisini ularga boshliq qilib tayinlab unga amir-al umaro (amirlar amiri) nomini berardi. Mamuriy jihatdan bu davlat viloyatlarga, viloyatlar esa, shahar va qishloqlarga ajratib boshqarilgan. Malik lavozimidagi shaxs 10 ming qo'shinga boshchilik qilgan o'zini kursatgan maliklarga xon unvoni berilgan. 1195-yilda xorazmshohlar davlatining 170-ming kishilik qo'shini bo'lganligi haqida tarixiy malumotlar mavjud. Ba'zi malumotlarda esa 400 ming qo'shini bo'lganli haqida aniq malumotlar mavjud. Sulton Alovuddin Muhammadning o'zini shaxsiy 10 ming gvardiyasi bor edi. Xorazmda qullardan tuzulgan armiya bo'lgan u xaras deb atalgan bu qushin asosan karvonlarni quriqlab borgan. Qushindagi choparlar chovush, ularning boshliqlari esa muqaddam chovushiya deb yuritilgan. Maxsus xufiya va ayg'oqchilar bo'linmalari josusiya deb atalgan josuslarning asosiy vazifasi dushman qo'shinlarining ahvoli davlatdagi ichki kelish movchiliklar haqida malumot tuplash bilan shug'ulangan. Urush boshlanishidan oldin yoki urush elon qilingan vaqtda Xorazmshohlar harbiy kengash chaqirishardi va unda oldinda turgan urush muhokama qilinar edi. Ushbu harbiy kengashga Xorazmshohning o'zi ulamolar, qonunshunoslar va munajjimlar taklif qilinar edi. Kengashda barcha takliflar ko'rib chiqilib, sungi qarorni sultonning o'zi qabul qilardi. Armiyada diniy ishlarga qozi-iy-xasham yoki qozi-al-askar rahbarlik qilgan. Xorazm qo'shinlari yaxshi qurollangan bo'lib, odatdagi qilich, kamon, nayzalar bilan qurollardan tashqari manjaliq (katapult) tosh otar kabi hujumda ishlatiladigan narvonlar, to'sinlardan ham keng foydalanganlar. Xorazmshohlar istehkom va qat'alar qurishga katta e'tibor qaratgan. Xorazmda har tomonlama baland va mustahkam qurilgan ilal, qohri, xo'rondiz, ardaxn kabi qal'alar bo'lganligi haqida tarixiy ma'lumotlar saqlanib qolgan. Qal'alardagi jangchilarga mustahfizlar qo'mondonlik qilgan. Xorazmshohlar davlatida politsiya va jazolash vazifalarini maxsus otryadlarga rahbarlik qiluvchi shixnalar bajargan. Bu mansabga asosan turk harbiy boshliqlari-amir etib tayinlangan. Shihna hokimiyat uchun xavfli bo'lgan hamma ishlarni nazorat qilgan. Har bir bosib olingan viloyat



va nihoyalarga zudlik bilan shihmalar tayinlangan. Xorazmshohlar davlatida qo'shinlarning tashkiliy tuzulish, hujum yoki mudofasida qo'llaniladigan harbiy harakatlar tuzilishi arab qo'shinlari tuzilishidan olingan bo'lib, ilg'or-o'ng qanot markaz-chap qanot ar'ergard va zasada (xofiya) qisimlaridan iborat edi. Xorazmshohlar davlatida XIII asirning boshlarida mo'g'illarning O'rta Osiyoga yurishlari boshlanishi arafasida Xorazmshoh Anushteginiylar sulolasining so'ngi xukimdori Alovuddin Muhammad davrida mamlakatda ichki siyosiy va boshqa kelishmovchiliklar kuchayib ketishi oqibatida davlat Chingizxon boshchiligidagi mug'ullar tomonidan bosib olinadi.

Xulosa. Xorazmshoh Anushteginiylar davlatida boshqaruv o'zgacha bo'lgan davlatning boshqaruv tizimi monarxiya bo'lgan mamlakatni sulton boshqargan undan keying o'rinda vazir turgan. Vazir mamlakatda barcha jamoat ishlarini borishini taminlagan, vazirlar asosan arab va fors vakillaridan tayinlanganligi buning yorqin misoli bula oladi ular asosan Quron oyatlarini saroy odob axloq qoidalarini yaxshi bilgan kishilar edi. Buning natijasida mamlakatning obruyi va martabasi oshib borib davlatda tinchilik va osoyishtalik xukum surgan. Davlat mansabida ishlayotgan turli xil mansab vakillari sultoning buyruqlarini so'zsiz bajarganligini ko'rishimiz mumkin. Xorazmshohlar davlatida markaziy boshqaruv tizimi dargoh va devonlar tizimi Saljuqiylar davlatinikiga oxshash qilib tuzulgan bunga sabab sulolaning birinchi vakillari davlatni saljuqiy sultonlar tasiri ostida boshqargan. Davlatda tuzilgan qo'shin ham saljuqiylar davlatidagi kabi tuzilgan. Xorazmshohlar davlatidagi ichki kurashlar saroydagi boshboshdoqlik ularni birlashtirishga yo'l qo'ymadi bu esa o'z novbatida davlatni Chingizxon boshchiligidagi mug'ullar tomonidan bosib olinishiga zamin yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A. Ziyoning/ O'zbek davlatchiligi tarixi/ 2000 chop.
2. Z. Bunyodovning/ Anushtagin xorazmshohlar davlati/



INNOVATIVE PUBLICATION

Journal of Effective

Learning and Sustainable Innovation

Vol.1 №5 (2023). December

innovativepublication.uz



3. A.S. Sagdullayev/ O‘zbekiston tarixi I-kitob/ 2018 chop.
4. Utamish Xoji ibn Muhammad Do‘stiy/ Utmishi Xoji tarixi/2009.
5. Shixobiddin Muhammad an-Nasafiy/ Siyrat as-sulton Jalol ad-Din Mangburni.
6. Shodmon Voxidov, Alisher Qodirov/ Sharqning mashhur sulolalari/ 2013.
7. <http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/78>
8. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Xorazmshohlardavlati>